

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston davlat jahon
tillari universiteti rektori v.v.b.**



Kulmatov B.G.

07 ” 2023-yil

**KIRISH IMTIHONLARIDA “CHET (INGLIZ, FRANSUZ, NEMIS)
TILI” FANI MAVJUD BARCHA TURDAGI TA‘LIM YO‘NALISHLAR
(KO‘ZI OJIZLAR) UCHUN KIRISH IMTIHONLAR DASTURI VA
BAHOLASH ME‘ZONI**

Toshkent – 2023

Dastur **O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti** o‘quv - uslubiy kengashining 2023 -yil “22.06” dagi 10 sonli majlisida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan.

Tuzuvchilar: O‘zDJTU “Maktabgacha va boshlangich ta’limda ingliz tili ” kafedrasida katta o‘qituvchisi N.Egamberdiyeva

O‘zDJTU “Ingliz tili nazariy aspektlari №1” kafedrasida dotsenti J. Matyakubov

O‘zDJTU “Nemis tili amaliy fanlar kafedrasida mudiri”- Ziyadullaev I.,

O‘zDJTU “Fransuz tili amaliy fanlar kafedrasida mudiri”, katta o‘qituvchi Z.Davronova

Taqrizchilar O‘zDJTU “Maktabgacha va boshlangich ta’limda ingliz tili ” kafedrasida mudiri katta o‘qituvchi Xojiqulov Sh.

O‘zDJTU “Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasida mudiri” f.f.d., professor J.Yakubov

O‘zDJTU “Nemis tili nazariy fanlar kafedrasida” mudiri f.f.n., dotsenti Yu.Ismailov

KIRISH

Ushbu dastur **ingliz, nemis va fransuz** tillaridan kirish imtihonini topshiradigan ko'zi o'jiz abituriyentlarga mo'ljallangan bo'lib, unda abituriyentlarning chet tillarining tinglab tushunish, og'zalci nutq ko'nikmasi, matnda ishlatilgan so'z va iboralarni tarjioa qila olish qobiliyati aniqlanadi.

Dasturda keltirilgan ushbu mavzular abituriyentlarning xorijiy tillarda bilimlarini baholashda muhim o'rin tutadi.

Fanning maqsadi va vazifasi

Mazkur dasturning maqsadi ko'zi o'jiz abituriyentlarning ingliz, fransuz va nemis tili fanlaridan bilim darajasini aniqlashdan iborat.

Dasturning vazifasi ko'zi o'jiz abituriyentlarning chet tillarida eshitish ko'nikmalarini aniqlash;

- abituriyentning mustaqil fikrini bayon etish kompetensiyasini bilish;
- original matnni tushunish darajasini aniqlash;
- berilgan matnlar yuzasidan o'zining fikr mulohazasini chet tilida bayon qilish;
- og'zaki nutq ko'nikmasi, leksik til boyligi, talaffuzini aniqlash;
- abituriyentning og'zaki suhbatga kirishish kompetensiyalami aniqlashdan iborat.

ASOSIY QISM

Fonetika. Abituriyentlarni o'z fikrini erkin, ifodali va to'g'ri bayon etishlari uchun fonetik qoidalarga rioya qilishi muhim hisoblanadi. Bunda asosan ular so'zlarning to'g'ri talaffuz qilishi, ohangga ahamiyat bergan holda gapirishi va urg'ulaming to'g'ri qo'llanilishiga ahamiyat berish kerak.

Grammatika. Chet tilidagi nutqni to'g'ri bayon qilishda asosan gaplarda so'z tartibi, gaplaming maqsadiga ko'ra turlarini bilish muhim ahamiyat kasb qiladi Bundan tashqari abituriyentlar quyidagi grammatik xodisalarni bilishi kerak:

Mustaqil so'z turkumlari: Ot. Turdosh va atoqli hamda ularning turlari, otlarda son kategoriyasi, otlarning ko'plik yasalish formalari va ularning turlanishi haqida to'xtalib o'tilgan.

Sifat. Sifat darajalari, asliy va nisbiy sifatlar, sifatlarning yasalishi, sifatlarning otlashishi va ularning turlanilishi.

Son. Sanoq va tartib sonlarning yasalishi va qo'llanilishi. Sonlarning otlashishi. Olmosh va ulaming turlari. Olmoshlaming kelishiklarda qo'llanilishi va ulaming gapdagi sintaktik vazifasi.

Fe'I. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'llaming yasalishi. Fe'llarning tuslanishi. Fe'l nisbatlari. Mayl kategoriyasi. Fe'I zamonlari.

Ravish va ularning turlari, yasalishi.

Yordamchi soʻz turkumlari: koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama va ulaming maʼno va tuzilish jihatdan turlari.

Modal soʻzlar, undov soʻzlar, taqlid soʻzlar, tasdiq va inkor soʻzlar.

Sintaksis. Gap. Gap boʻlaklari. Bogʻlovchilar va ularning turlari. Uyushiq bodakli gaplar. Ajratilgan boʻlaklar. Gapning tuzilishi jihatdan turlari.

Qoʻshma gap. Ergash gapli qoʻshma gap va ularning turlari.

Ogʻzaki suhbatning taxminiy mavzulari:

1. Oʻzbekiston. Oʻzbekiston tarixi, aholisi, maydoni, chegarasi, poytaxti, tarixiy shaharlari, milliy bayramlari, Oʻzbekistonning chet davlatlar bilan aloqasi.

- Tili oʻrganilayotgan mamlakat tarixi, aholisi, geografik joylashishi, sanoati, siyosiy tizimi, yirik shaxarlari, milliy bayramlari, buyuk shaxslari.

- Yil fasllari.

- Tarjimai holi, mening oilam, mening ish kunim, mening doʻstim, mening ona shahrim, mening sevimli yozuvchim (shoirim), men tanlagan kasb.

- Mening dam olish kunim, teatr, kino, kutubxonaga tashrif, sport mening hayotimda.

“CHET (INGLIZ, NEMIS, FRANSUZ) TILI” FANIDAN KIRISH IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI

Koʻzi ojizlar uchun kirish imtihonlari 5 ballik tizimda baholanadi..

Koʻzi ojizlar uchun kirish imtihonlari ogʻzaki tarzda oʻtkaziladi.

Kirish imtihonini baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:

1. Abiturientning javobi “5-baho” (aʼlo)ga baholanishi uchun:

- nazariy bilimlarga ega boʻlsa;

-ijodiy fikrlay olsa;

-grammatikani chuqur bilsa;

-olgan bilimlarini amalda qoʻllay olsa;

-erkin suhbat olib borish koʻnikmasiga ega boʻlsa.

2. Abiturientning javobi “4-baho” (yaxshi) ga baholanishi uchun:

- nazariy bilimlarga ega boʻlsa;

-ijodiy fikrlay olsa;

-grammatikani bilsa;

-olgan bilimlarini amalda qoʻllay olsa;

-erkin suhbat olib borishda biroz qiynalsa.

3. Abituriyentning javobi “3-baho” (qoniqarli)ga baholanishi uchun:

- nazariy bilimlarga ega bo'lsa;
- nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashga qiynalsa;
- fikirni to'liq bayon qila olmasa;
- savollarga to'liq javob bera olmasa;
- grammatikani to'liq bilmasa.

4. Abituriyentning javobi “2-baho” (qoniqarsiz)ga baholanishi uchun:

- nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega bo'lmasa;
- tarjima qila olmasa;
- savollarga javob bera olmasa;
- grammatikani bilmasa;
- erkin muloqotga kirisha olmasa.

Apellatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Apellatsiya komissiyasi imtihon komissiyasi faoliyatini yo'lga qo'yilishi bilan bir paytda 2022/2023 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent imtihon natijalari e'lon qilingan kundan boshlab, 24 soat ichida apellatsiya komissiyasiga murojaat etishi shart. Aks holda ko'rsatilgan muddatdan o'tib qilingan murojaat inobatga olinmaydi.

Apellatsiya komissiyasi abituriyentlar tomonidan bildirilgan og'zaki va yozma murojaatlariga javob beradi.

Abituriyent tomonidan bildirilgan murojaatni ko'rib chiqadi va 24 soat ichida xulosalarni ma'lum qiladi.